XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

Yangiobod tumani 131300, Yangiobod shaharchasi Mustaqillik shoh ko‘chasi 1-uy.
Tel: (72) 542-12-27

2023 - yil 28 - avgust VI-61-138-3-54-K/23 Yangiobod tumani hokimligi

Balandchaqir MFY Mug‘ol qishlog‘idagi oilalarni Xo‘jamushkent QFY tarkibiga qo‘shish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 10-son, 107-modda) asosida, Yangiobod tumani Balandchaqir mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 29-maydagi 07-sonli yig‘ilish bayoni, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limining iltimosnomasi hamda Balandchaqir MFY Mug‘ol qishlog‘ida istiqomat qiluvchi aholining talab va istaklarini inobatga olish to‘g‘risidagi tuman hokimining taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Balandchaqir MFY Mug‘ol qishlog‘i Ma’rifat ko‘chasi va unda yashovchi 82 ta oila, Mash’al ko‘chasi va unda yashovchi 69 oila jami, 151 ta oilalar Xo‘jamushkent qishloq fuqarolar yig‘ini tarkibiga o‘tkazilsin hamda Balandchaqir mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 862.42 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Xo‘jamushkent qishloq fuqarolar yig‘ini hududiga qo‘shilsin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Abdug‘aniyev) manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda fuqarolar yig‘inlarining oilalar soni o‘zgartirilishi bilan

bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minlasin.

3.Tuman Kadastr Agentligi (A.O‘rinboev)ga Balandchaqir MFY va Xo‘jamushkent QFY chegaralarini qayta ko‘rib chiqib, o‘zgartirish kiritish vazifasi topshirilsin.

4.Tuman statistika bo‘limi (Y.Sharofboev) ushbu qarorga muvofiq aholi punktlari tarkibiy qismlarining statistik ko‘rsatkichlariga ikki hafta muddatda zarur o‘zgartirishlar kiritsin.

5.Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Axmedov) Xo‘jamushkent QFYga o‘tkazilgan aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6.Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Rajabov), “Yangiobod ovozi” gazetasi tahririyati (A.Muhammadiev)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytida hamda mahalliy matbuotda chop etish va uning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.


7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Abdug‘aniyev zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **I.B.Qarshiboyev**

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2023-yil 28-avgustdagi
VI-61-138-3-54-K/23-son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Yangiobod tumani Xo'jamushkent QFY Xaritasi



Ushbu chegaralarni joyida to‘g‘ri va aniq kelishilganligini tasdiqlab imzolovchilar

Yangiobod tuman hokimining
chegara masalalari bo’yicha yordamchisi

Davlat kadastrlari palatasi
Yangiobod tuman filiali boshlig‘i

Tuman kambag’allikni qisqartirish
va bandlikka ko’maklashish bo’limi boshlig‘i

Xo’jamushkent QFY raisi

Chegaradosh mahallalar fuqarolar yig’ini raislari:

Balandchaqir MFY raisi

Do’stlik MFY raisi

Sovot MFY raisi

Zomin tumani

Tojikiston Respublikasi

Shartli belgilar

Chegaralarning asosiy burulish nuqtalari

MFY chegarasi

Balandchaqir MFY dan Xo'jamushkent QFYga o'tkazilayotgan xudud

A dan B gacha Tojikiston Respublikasi
B dan D gacha Balandchaqir MFY
D dan E gacha Do’stlik MFY
E dan F gacha Sovot MFY
F dan A gacha Zomin tumani

Xo’jamushkent QFY Chegara uzunligi:78897 m
Xo’jamushkent QFY Umumiy yer maydoni:8221,96 ga
Xo’jamushkent QFY ga o’tayotgan yer maydon:862,42 ga

Masshtab 1:40 000